



UDK:7.01(075.8)

**Dilbar KADIROVA,**

*International school of finance technology and science instituti professori, falsafa fanlari nomzodi*

*E-mail: dilbarkadiroval@gmail.com*

*PhD Z.Abdumuzimova taqrizi asosida*

## ESTETIKA VA DIZAYN

Аннотация

Maqolada estetika va dizayning aloqadorligi va unda estetik didning o'rni, dizayning ta'rifi, rassomlik va dizaynni vujudga kelishiga oid tarixiy qarashlar, dizaynda tasniflash muammolari va kompozitsiyani o'rni, dizayn va san'at, interer dizayning prinsiplari va ularning estetik qonuniyatlar bilan bog'liqligi masalalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Dizayn, interyer dizayni, shakl, konstruksiya, arxaik dizayn, futuristik dizayn, kolorit, ritm, simmetriya, kompozitsiya, atrof muhit dizayni, proporsiya, uyg'unlik, estetika, go'zallik.

## ЭСТЕТИКА И ДИЗАЙН

Аннотация

В статье изучается взаимосвязь эстетики и дизайна, роль эстетического вкуса в ней, определение дизайна, исторические взгляды на возникновение искусства и дизайна, проблемы классификации и роль композиции в дизайне, дизайн и искусство, принципы дизайна интерьера и их связь с эстетическими законами.

**Ключевые слова.** Дизайн, дизайн интерьера, форма, конструкция, архаичный дизайн, футуристический дизайн, колорит, ритм, симметрия, композиция, дизайн окружающей среды, пропорция, гармония, эстетика, прекрасное.

## AESTHETICS AND DESIGN

Annotation

This article examines the relationship between aesthetics and design, the role of aesthetic taste in it, the definition of design, historical perspectives on the origins of art and design, issues of classification and the role of composition in design, design and art, principles of interior design and their relationship to aesthetic laws.

**Key words:** Design, interior design, form, construction, archaic design, futuristic design, color, rhythm, symmetry, composition, environmental design, proportion, harmony, aesthetics, beauty.

**Kirish.** Fan, texnika va ijtimoiy aloqalarining rivoji, utilitar-amaliy va badiiy-estetik talablarning sinteziga olib keldi. Bu jarayon texnika, texnologiyalar, materiallar va b.ning tezkor rivojlanib, mukammallashib borishi bilan bog'liq. Inson yangi texnologiyalarni yaratibgina qolmasdan, ularning o'z estetik didiga mos bo'lishini ham ho'xlaydi. Yangi texnologiyalar cheksiz imkoniyatlar, qulayliklar yaratadi, shu bilan birga, inson, uning bezagi, rangi, shaklini ham, individual xususiyatlariga xos bo'lishini, jozibador bo'lishini istaydi. Uning natijasida texnika estetikasi va badiiy konstruktorlashtirish, dizayn vujudga keldi va u jamiyatning sotsiomadaniy va estetik rivojlanishi hodisasi sifatida edi. Dizayn (ing. design — loyiha, chizma, rasm), bu - bizni qurshab turgan narsalar dunyosini estetik jihatlariga qarab, badiiy loyihalash va konstruktirlashtirishdir. Dizayn — narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi termin. Dizayn ob'ektlarni shunday loyihalashtiradiki, bunda shakl ob'ektning nimaga mo'ljallanayotganidan kelib chiqib, uning tejamliligi, qulay va go'zal bo'lishini ta'minlaydi. Dizayn—bu foydalilik va go'zallikning birligi bo'lib, amalda va shaklda bir butunlikka ega bo'lgan narsalar dunyosi hisoblanadi. Dizayning muhim xususiyati shundan iboratki, bunda har qanday yaratilgan narsa, foydalilik, mustahkamlik va go'zallik nuqtai nazaridagina emas, balki uning ishlab chiqarish va qo'llanish jarayoni bilan ham aloqadorlikda ekanidadir, bu esa, yaratilgan narsaga, estetik asosda, tizimli yondoshishni taqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xitoy estetikasida Se Xe (479-502) "Rasmning oltilta tamoyili" asarida o'rganadi, ular: hayot mohiyatini ifodalash; mo'yqalam san'ati; ranglarni predmetning tabiatiga muvofiq ishlatilish; chizish, yaratish; shaklni haqiqiy narsaga moslashtirish; o'tmishning eng yaxshi namunalariga taqlid qilish. 11 asrda muallif Su Shi ilhom va iste'dodning roliga e'tibor qaratgan[1]. Qadimgi Xind ustalari, o'z asarlarida bir tomondan kanon usullarini, boshqa tomondan, obrazlar, shakllar, syujetlarni uyg'un tarzda muvofiqlashtirishdi. Kanonlar, ramziylik, obrazning ifodaviyligi, ming yillar davomida, mutanosiblik, proporsiya qonunlari shakllanmaguncha sayqallanib borgan. Ayniqsa, arxitektura, she'riyat (Vedalar adabiyoti), musiqa (qadimgi Hindistonda musiqa professional maqomini olgan), haykaltaroshlik va tasviriy san'at rivojlangan[2]. "Chitralakshana" risolasi ("tasviriy san'atning o'ziga xos xususiyatlari") uch qismdan iborat bo'lib, she'riy shaklda yozilgan. Uning uchinchi qismida odamlarni, shohlarni, xudolarni va boshqa mavjudotlarni tasvirlash usullari haqidagi estetik qarashlar mavjud. Bu yerda ular "ramz", "proporsiya", "go'zallik", "ob'ektlar va tasvir usullari", "san'at" tushunchalarini ishlatganlar. Uyg'onish davrining boy badiiy amaliyoti san'at haqida ko'plab risolalarni yaralishiga sabab bo'ldi. "Rassomlik haqida", 1435; "Haykaltaroshlik haqida"; 1464; "Arxitektura bo'yicha"; 1452 Leon-Battista Alberti; ilohiy nisbati to'g'risida; Luka Pacholi (1445–1514); hamda, Leonardo da Vinchining rassomlik haqidagi asarlari shular jumlasidandir. Ularda san'atga, shoir va rassom ongining

ifodasi sifatida qaralgan. Bu risolalarning muhim xususiyati shundaki, ularda, san'at nazariyasi, chiziqli va havo perspektikalari, nur-soya, proporsiya, simmetriya, kompozitsiyaning muammolari rivojlantirilgan[3].

Dizayn faoliyati tarkibiga, keng iste'mol buyumlari, mashina, dastgoh, kiyim, reklama va qadoqlash materiallari, ishlab chiqarish, jamoat va turar joy binolarini jihozlash, mebel va b. kiradi. Dizayn XX asr boshlarida yuzaga kelib, 30-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G'arbiy Evropa va AQSHda shakllandi. 80-yillarning 2-yarmidan dizaynning faoliyat doirasi kengaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dizayn san'atdan, faqatgina formal uslub va vositalari bo'lmish, proporsiya, ritm, uyg'unlik va yaxlitliknigina emas, balki badiiy obraz yaratish imkoniyatini ham olgan. Barcha san'at turlarida badiiy obraz statik (qat'iy, o'zgarimas) yoki dinamik (o'zgaruchan, harakatchan) xususiyatga ega bo'ladi. Dizaynda ham, arxitekturadagi kabi har bir funksional tizim, yangi obraz yaratishga olib keladi. Dizaynning funksional tomoni, narsaga nafaqat uning qo'llanilish nuqtai nazaridan, balki uning yaratuvchisining topqirligi, kreativligi nuqtai nazaridan ham qarash imkonini beradi.

**Muhokama va natijalar.** Endi dazaynda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar bilan tanishamiz. Dizaynda shakl – bu biron bir ob'ektning ichki tuzilishi va tashqi ko'rinishlarining birligi, yoki, predmet tashqi qiyofasining ichki tomoniga mos kelishidir. Shaklda ko'rinadigan barcha belgilar juda muhim: geometrik ko'rinishi (konfiguratsiya), o'lchami, fazoda joylashuvi, og'irligi, faktura (o'ziga xosligi), tekstura (tarkibiy tuzilishi), ranggi, nursoyasi va b. Uslublar evolyusiyasi madaniy-tarixiy davrlar va badiiy kashfiyotlardan kelib chiqqan holda, shakllarning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Konstruktsiya – bu shaklning asosi, aloqadagi element va qismlarni bir butunga birlashtiruvchi karkas, o'zak. Texnikaning zamonaviy darajaga erishishi rassomlarga kompyuter grafikasi yordamida yangi shakllarni yaratishda yaqindan yordam beradi. Dizaynning konstruktiv tomoni - makonga oid, dinamik, modulli-geometrik tuzilmalari sohasidagi an'analar bilan bog'liq. Muloqotga oid tomoni - buyumlarni solum, uning ehtiyojlari va o'zaro munosabatlari nuqtai nazaridan ochib berish hisoblanadi. Texnologik tomoni - maqsadga eng maqbul usul bilan erishish imkonini beruvchi turli texnologiyalarni o'rganish, joriy qilish bilan bog'liq. Badiiy-estetik tomoni esa, buyumning qadriyatga oid jihatini, uning individualligi va nafisligini ochib berishni o'z ichiga oladi. Dizaynerlik buyumlari, ishlab chiqarishning ommaviylik jihatiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi: dizaynning barcha sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ommaviy predmetlar; miqdori cheklangan va odamlarning alohida guruhi tomonidan qo'llanilishga mo'ljallangan korporativ mahsulotlar (buyumlar); dizaynning yagona nusxada ishlab chiqariluvchi, san'at asari maqomiga ega bo'luvchi individual predmetlar.

Vaqtga nisbatan darajasiga ko'ra, dizayn quyidagicha tavsiflanadi:

arxaik dizayn. O'tmish an'analari va g'oyalarini aks ettiruvchi buyumlarni yaratish (spektakl, maskarad, bayramlar uchun tarixiy kiyimlar, mebellar va b.), o'tgan davrlarda ishlab chiqilgan buyumlarni, ularni modernizatsiya qilish maqsadida qo'llash (vintaj); aktual dizayn zamonaviylik g'oyalarini aks ettiradi va bugungi kun talablarini qondirishga yo'naltiriladi;

futuristik dizayn. Kelajak g'oyalarini ochib beruvchi, shuningdek kelajak avlodning ehtiyojlari va estetik qarashlarini prognozlovchi ko'rgazmali model. Dizaynning badiiy vositalari tasviriy san'at bilan uyg'unidir. Ular; qalam tasvir, rang, nur va soya, hajm, perspektiva singari asosiy tushunchalardan iborat.

Dizaynning ifodaviy vositalarini esa; rang, ritm,

garmoniya, kontrast, dinamika va b. tashkil etadi. Dizaynning kompozitsion vositalarga kolorit, ritm, plastika, simmetriya kiradi. Kompozitsion qonun yaxlitlik, o'lchamlilik, mutanosiblik, o'zgarish va kompozitsiya qismlarini qarama-qarshi qo'yishga asoslangan. Dizayner loyihalashtirayotganida hajm va ritmga, shaklning statikligi (muvozanati) va dinamikligiga (o'zgarish surati) qarab, kompozitsiyadagi muvozanatni ifodalashga erishadi, kontrast (ko'zga tashlanadigan keskin farq) va nyuans (sezilmaydigan farq)larni ko'rsatishga harakat qiladi, bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha kompozitsiya markazlarida ish olib boradi.

Kompozitsiyaning asosan ikki turi mavjud: fazoli-hajmli va tekis kompozitsiya. Kompozitsiyani ifodalashning muhim vositalari – hajm, fazo, struktura va tektonika (qismlarning o'zaro joylashish tartibi), masshtab (ko'lam), mutanosiblik, ritm (marom) va metr, kontrast va nyuans, simmetriya (mos tushish) va assimetriya (nomutanosiblik), rang va b. hisoblanadi. Mazkur vositalarning barchasi uyg'unlashib, mukammal natijaga erishishi uchun, barcha tarkibiy elementlarning o'ziga xos sintezi lozim bo'ladi. To'g'ri kompozitsiya vositalarini tanlash - bu ijodkorlik, estetik did va tuyg'u, tajriba va maxsus bilim talab qiladigan juda nozik jarayon hisoblanadi.

Ma'lumki, san'at asarlarini his qilishda zarur bo'ladigan go'zallikning doimiy elementlari, qonuniyat va vositalari ishlab chiqilgan. San'at nazariyasida ular - ifoda, badiiy va kompozitsion vositalar, xususan nur va soya, kontrast, simmetriya, nisbat, plastiklik, ritm, tonallik, dinamika, hajmlilik, masshtab, uyg'unlik deb yuritiladi. Bularga amal qilgan holda estetik batartiblikka oson erishilib, san'atda yuksak badiiy asarlarni yaratish engillashadi. Kant san'at turlarini uch qismga bo'lib tasniflaydi: so'z san'ati; hissiy o'yinlar san'ati(musiqa); tasviriy san'at va unga inter'erni bezashni ham kiritadi[4]. Biz ham, quyida,dizaynning bir turiga batafsilroq to'xtalishga va undagi estetik qonuniyatlarini tahlil qilishga harakat qildik, chunki bu qonuniyatlar dizaynning deyarli barcha soha va yo'nalishlariga ham taalluqlidir.

Interer dizayni bu, binoning ichki maydonidan foydalanadigan odamlar uchun, yanada sog'lom va estetik jihatdan qulay muhitga erishish uchun, binoning interer qismini yaxshilash san'ati va estetik faoliyat turidir. Interer dizayneri bu kabi takomillashtirish loyihalarini rejalashtiradigan, izlaydigan, muvofiqlashtiradigan va boshqaradigan odam. Interer dizayni - bu konseptual rivojlanish, fazoni rejalashtirish, joylarni tekshirish, dasturlash, tadqiqotlar, loyihaning manfaatdor tomonlari bilan aloqa qilish, qurilishni boshqarish va dizaynni bajarishni o'z ichiga olgan ko'p qirrali kasb hisoblanadi.

Qadimgi Misrda, Qadimgi Yunoniston va Rimda arxitektura va buyumlar muhiti o'zaro uyg'unlikda yaratilgan. Intererlarning, kiyim-kechak, mebel, idish va boshqa maishiy turmush jihozlarning shakli va bezaklariga qarab, ularning qaysi uslubda yaratilganligini bilib olish mumkin. Qadimgi Hindistonda me'morlar interer dizaynerlari vazifasini ham bajaranganlar. Buni hind mifologiyasidagi xudolardan biri bo'lgan me'mor, Vishvakarmaning ko'rsatmalaridan ko'rish mumkin. Qadimgi Misrda "ruhiy uylar" (yoki uylarning maketlari), qabrlarga oziq-ovqat qurbonligi uchun idish sifatida joylashtirilgan. Professional interer dizaynga o'tish, 1899 yilda tashkil etilgan Britaniya dekorativ institutining prezidenti, Jon Dibble Kreys tomonidan ishlab chiqilgan.

Quyida interer dizaynning badiiy-estetik tasnifini, interer dizaynning prinsiplarini keltiramiz. Estetik nazariyada badiiy asar qurilmasining eng asosiy estetik mezonlarini, shartli ravishda to'rt guruhga bo'lgan edik. Ushbu qonuniyatlar dizaynda ham o'z aksini topadi.Ular quyidagilardan iborat edi:

1.G'oyaviy mezonlar; g'oya, uslub, janr, mavzu, mazmun. 2.Rivojlantiruvchi mezonlar; qarama-qarshilik

dialektikasi, xarakterlar rivoji, dinamika, kulminatsiya 3. Miqdor mezonlari; garmoniya va unda mutanosiblik proporsiya, ansambl, ritm va uning go'zallik va tartibni yaratishda o'rni. 4. Tashkiliy-shakli mezonlari; shakl va kompozitsiyasi.

Endi, xuddi shu sxemani dizaynga tadbiiq etamiz, chunki bu mezonlar, badiiylilik sohalarning barchasiga taalluqlidir. Faqat faoliyat turiga qarab, o'zgina o'zgarishlar bo'lishi mumkin. 1. G'oyaviy mezonlar; yaxshi o'ylangan konsepsiya, funktsionallik va ifoda. 2. Rivojlantiruvchi mezonlar; qarama-qarshilik, kompozitsion markaz va aksent. Rivojlantiruvchi sifat mezonlari; ranglar; fon. 3. Miqdor mezonlari; ritm, garmoniya, proporsiya va masshtab takrorlash; uyg'unlik va balans; miqyosi va nisbat. 4. Tashkiliy-shakli mezonlari; kompozitsiya. 5. Qo'shimcha mezonlar; detallar; nyuans va tenglik[5].

Shuningdek dizaynda uslublar estetik g'oyaning ifodalanishidir.

Dizaynda san'atdagi uslublarning ko'pi mavjud bo'lib ular Klassika, gotika, barokka, modern va boshqalardir. "Har bir uslub, eng avvalo, ma'lum bir tarixiy davrning ijtimoiy qarashlari va g'oyalaridan, voqelikka estetik munosabatidan, estetik bahosi va did me'yorlaridan, nihoyat ideallaridan tashkil topgan estetik mezonlar tizimidir" [6]. Asar uslubi strukturasi esa Borev quyidagicha tizimlaydi: Tematik va intansion umumiylik. 2 – milliy stilistik umumiylik. 3 – milliy-bosqichga oid uslub. 4 – badiiy yo'nalish uslubi. 5 – ijodkorning individual uslubi. 6 – ijod davri uslubi. 7 – asar uslubi. 8 – asar

elementi uslubi. 9 – davr uslubi[7]. Demak, Borev uslubga ham individual, ham nazariy, ham ijtimoiy faktor hamda badiiy yo'nalish sifatida baho beradi.

**Xulosa.** Demak, dizaynerlik kasbini egallagan odam, estetik madaniyatli bo'lishi, go'zallikni va qulaylikni, foydalilik va tejamlilikni, har qayerda va har sohada seza va ko'ra bilishi, yuksak estetik didga ega bo'lishi kerak. Dizayner, o'z ishida, moddiy dunyoning umummadaniy, badiiy-obrazli jabhalarini aniqlashga yo'naltirilgan, eng turli xildagi vositalar (texnik loyihalash, kompozitsiya qurish, shakllarni o'zgartirish, uslublarni shakllantirish, funktsional tahlil, makonga oid predmetli muhitning kontseptual modellari)majmuidan foydalanadi. Dizayner ularning yordamida, ijtimoiy-madaniy, badiiy-estetik masalalarni hal etadi. Dizayner narsa ustida olib borgan ijodiy ishida bir butunlikdan kelib chiqar ekan, u narsani eskizlarda va chizmalarda ko'rinadigan holda moddiylashtiradi. Aynan mana shu narsa uning badiiy o'ziga xosligini ko'rsatadi, u o'z badiiy-estetik tasavvurlarini, o'y-xayollarini qalam orqali rasmda ifoda etib, erkin fikrlaydi va mehnatining natijasi bizlarga estetik ta'sir ko'rsatadi. Dizayn- bu ko'rkamlik va qulaylik, foydalilik va tejamkorlik, go'zallik va ezigulikning o'zidir. Dizayn o'zida qanchalik fan va texnikaning yangidan-yangi yutuqlarini mujassamlashtirmasin, u go'zal va jozibali bo'lishi va estetik talablarga javob berishi lozim, insonni o'ziga tortishning asosiy vositalaridan biri ham, estetik omillardir. Shuning uchun dizaynda estetikaning asosiy qonuniyatlari amal qilaveradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Gudimova, S. A. "Основы древней китайской эстетики." Vestnik kulturologii 2 (81) (2017): 57-73.
2. Dolgov, K. M. "Estetika prirody." (1994): s.380.
3. Losev, Aleksey Fedorovich. Estetika vozrojdeniya. Mysl, 1978.
4. Critique of Judgment, 1790
5. Kadirova D.S. Nafosat falsafasi. Darslik. Toshkent. Mumtozco'z. 2022. 279b.  
Ross, Stephaniye. "Style in art." The Oxford handbook of aesthetics (2003): 228-244.
6. Yu. Borev. Estetika. Moskva «Vysshaya shkola» 2002. S. 133-136.